va uyiga qaytadi. Kunlardan bir kuni Artur Kipsning xotiniga qora libosli ayol arvohi tashlanadi. Ayol yaxshigina jarohat oladi. Bundan Artur Kips ishni oxirigacha yetkazish kerakligini tushunib yetadi. Artur Kipsni qora libosli ayol ta'qib qilishini esa muallif quidagicha tasvirlaydi: *"Qora libosli ayol hatto bu yerda ham meni ta'qib qilayotgandek edi; u go'yo karvotiмning oyog'ida o'tirar, uxlab yotganimda yuzini to'satdan yuzimga yaqinlashtirib pastga egilardi, men esa dahshat ichida qichqirib uyg'onib ketardim – The Woman in Black seemed to haunt me even here ,to sit on the end of my bed ,to push her face suddenly down close to mine as I lay asleep, so I awoke crying out in terror"* [1;38 p.]. *Tasvirda muallif tomonidan ishlatilgan "haunt* – ingliz gotikasida ham "ta'qib qilish", ham "ruh bo'lib ko'rinish" ma'nosini anglatib, "ta'qib qilish" asardagi ruhiy bosimni yaxshi ifodalaydi, *push her face close to mine* – bu harakatdagi to'satdan va tajovuzkor yaqinlikni ifodalasa, *crying out in terror* – shunchaki "baqirib" emas, balki ichki qo'rquv va vahimani ko'rsatish uchun "dahshat ichida qichqirib" yuborishni ifodalaydi. Mazkur asardan keltirilgan parcha biz tahlil qilayotgan "qo'rquv psixologiyasi" sini ochib berishga xizmat qiladi.

Asarda muallif tuman va zulmatdan uyning muhitini tasvirlashda mahorat bilan foydalanadi. Ill Marsh uyi atrofidagi quyuq tuman asar personajlarning ham ko'zini, ham ongini xiralashtiruvchi vosita sifatida aks etadi. O'tmishning ta'qibi esa Gotik romanlarning asosiy qoidasi–o'tmish hech qachon o'tmishda qolmaydi, uning soyasi yo'qolmasligini namoyon qiladi. Asarda tasvirlangan qahramonlari, ko'pincha, begona bir oilaning fojiali sirlarini ochishga majbur bo'ladilar. Qasoskor arvohlar tasviri esa asarda "arvoh" shunchaki illuziya emas, balki tiriklar dunyosiga adolatsizlik yoki tugallanmagan qayg'u tufayli qaytgan qudratli kuchdir. An'anaviy gotikadan farqli o'laroq, Hill o'quvchini faqat tashqi effektlar bilan qo'rqitmaydi. U qahramonning ichki qo'rquvi, shubhalari va yolg'izligini birinchi planga olib chiqadi. Bu esa o'quvchida voqealarning haqiqiyligiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Maskur asar Syuzen Hillning "tashrif qog'ozi" hisoblanadi. Romanda gotik roman uchun xos bo'lgan barcha elementlar mukammal darajada jamlangan bo'lib ular quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Sirli uylar. Nine Lives Causeway (To'qqiz hayot yo'li) – bu yo'l faqat suv qaytgandagina ochiladi, bu esa qahramonni tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yadi.
2. Bolalar o'limi mavzusi. Gotikada eng og'riqli va qo'rqinchli mavzulardan biri bo'lgan bolalar o'limi asarning markaziy nuqtasida turadi.
3. Hissiy kuch. Jennet Hamfrining onalik mehri qasoskor nafratga aylanishi asarning dramatik kuchini belgilaydi.

Syuzen Hillning uslubi vazmin, ammo nihoyatda tasviriy. U ortiqcha so'zlardan qochadi, biroq har bir detal – eshikning g'irchillashi, shamolning uvillashi yoki bolalar aravachasining ovozi o'quvchining tasavvurida aniq gavdalanadi.

Xulosa va takliflar. Syuzen Hill ijodi gotika janrining o'lmasligini isbotladi. U klassik gotikaning tashqi atributlarini saqlab qolgan holda, unga zamonaviy psixologizm va insoniy fojiani olib kirdi. Uning romanlari shunchaki qo'rqitish uchun emas, balki o'lim, ayriliq va inson ruhining chidamlilik chegaralari haqida o'ylash uchun yozilgan. Hill zamonaviy gotik roman janrining haqiqiy malikasi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Hill S. The Woman in Black. London, Hamish Hamilton, 1983, 350 p.

(2). Labudova K. Narrating the dynamics of aging and gender through Victorian Gothic archetypes: Susan Hill's "The Woman in Black" and "the Mist in the Mirror. Journal of English and American Studies, 2014, 120 p.

(3). Sharma P.K. Politics of Gothic: A Study of Silence in Susan Hill's The Woman in Black. Katmandu: Tribhuvan University Press, 2011, 150 p.

(4). Shtefkova Z. The Use of Space in Gothic Fiction. Czech: Masaryk University Press, 2014, 130 p.

(5). Wisker G. It's a Ghost: The Ghost Story in the Twentieth Century. London: Continuum, 2005, 130 p.

Iusupova Kandilatxon (Renessans ta'lim universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasi dotsenti (PhD); E-mail: kandilatyusupova71@gmail.com)

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA INGLIZ ROMANCHILIGI MASALALARINING QIYOSIY TAHLILI: NAZARIY ASOSLAR VA BADIIY TALQINLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek romanchiligining qiyosiy-tipologik tadqiqi, o'zbek olimlarining bu boradagi ilmiy qarashlari va ayol obrazi talqinidagi konseptual yangiliklar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy determinizm, psixologizm, milliy madaniy kodlar va gender munosabatlarining badiiy matndagi ifodasi diqqat markazida turadi. Ulug'bek Mamajonov va Saodat G'aniyeva kabi olimlarning ilmiy xulosalari asosida ingliz realizmining o'zbek adabiyotiga ta'siri va ayol obrazining badiiy tadriji yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qiyosiy adabiyotshunoslik, ingliz romani, ijtimoiy determinizm, ayol obrazi, psixologizm, milliy andisha, gender tahlil, konsept.*

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ:ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется сравнительно-типологическое исследование английской и узбекской прозы, научные взгляды узбекских ученых в этой области и концептуальные нововведения в интерпретации женского образа. В центре внимания исследования находятся социальный детерминизм, психологизм, национальные культурные коды и выражение гендерных отношений в художественном тексте. На основе научных выводов таких ученых, как Улугбек Мамаджанов и Саодат Ганиева, освещено влияние английского реализма на узбекскую литературу и художественная эволюция женского образа.*

Ключевые слова: *сравнительное литературоведение, английский роман, социальный детерминизм, женский образ, психологизм, национальные ценности, гендерный анализ, концепт.*

A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ISSUES OF ENGLISH NOVELISM IN UZBEK LITERARY STUDIES: THE THEORETICAL BASIS AND ARTISTIC INTERPRETATIONS

Annotation. *This article analyzes the comparative-typological study of English and Uzbek prose, the scientific perspectives of Uzbek scholars in this field, and conceptual innovations in the interpretation of the female character. The study focuses on social determinism, psychologism, national cultural codes, and the representation of gender relations in literary texts. Based on the scholarly conclusions of researchers such as Ulugbek Mamajonov and Saodat G‘aniyeva, the influence of English realism on Uzbek literature and the artistic evolution of the female character are highlighted.*

Keywords: *comparative literary studies, English novel, social determinism, female character, psychologism, national ideology, gender analysis, concept.*

Kirish. O‘zbekistonda ingliz adabiyoti, xususan, ingliz romanchiligi masalalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o‘rganila boshladi. O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida asarlarning ijtimoiy-falsafiy mazmuni, milliy xususiyatlari, janriy xususiyatlari, qahramonlar psixologiyasi hamda Sharq–G‘arb adabiy an’analari qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishi jahon adabiy jarayonining umumiy qonuniyatlarini anglashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ingliz romanchiligi an’analari, uning janriy xususiyatlari va obrazlar tizimini o‘zbek adabiyoti bilan chog‘ishtirma planda o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli tus oldi. O‘zbek olimlarining ingliz adabiyotiga bo‘lgan qiziqishi nafaqat badiiy tarjima amaliyoti, balki ingliz realizmi, psixologik roman va ayollar prozasining nazariy asoslarini tadqiq etish bilan ham belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek inglizshunosligining shakllanishida Ulug‘bek Mamajonovning tadqiqotlari nazariy poydevor bo‘lib xizmat qildi. Olim XIX asr ingliz romanidagi realizm tendensiyalarini tahlil qilar ekan, Ch.Dikkens, U.Tekkeray va J.Eliot kabi adiblar ijodida bo‘y ko‘rsatgan ijtimoiy determinism, ya’ni, inson taqdirining ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi jahon romanchiligi uchun yangi badiiy mezon bo‘lganini asoslab berdi [1;58–84-b.]. Olim o‘z ilmiy xulosalarida ingliz realizmining shakllanishi nafaqat milliy, balki global miqyosda roman janrining estetik va strukturaviy jihatdan yangilanishiga turtki bo‘lganini alohida ta’kidlaydi. U.Mamajonovning ilmiy xulosalariga ko‘ra, ingliz romannavislarining psixologik tasvir mahorati va “kichik inson” obraziga bo‘lgan e’tibori, keyinchalik, sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek adabiyotida realistik tasvirning chuqurlashuvida muhim rol o‘ynagan. Tadqiqotchi ingliz romanining jahon adabiy jarayonini psixologik tasvirning chuqurlashuvi orqali boyitganini asoslaydi. Uning fikricha, ingliz romannavislar qo‘llagan badiiy detallar va qahramon ichki dunyosini fosh etuvchi tasvir usullari, keyinchalik, boshqa milliy adabiyotlar, xususan, rus va o‘zbek romanchiligida psixologizmning yangi bos-qichga chiqishiga zamin yaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda (2020–2026) o‘zbek adabiyotshunosligida ayol obrazining qiyosiy-tipologik tahlili yangi bosqichga ko‘tarildi. Zamonaviy adabiyotshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ingliz va o‘zbek romanchiligidagi ayol qiyofasini tadqiq etish jahon madaniyatidagi umuminsoniy qadriyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Saodat G‘aniyevaning izlanishlari alohida diqqatga sazovor bo‘lib, olima J.Ostin va O‘. Hoshimov asarlaridagi ayol obrazlarining badiiy talqinini milliy va umumbashariy mezonlar asosida tizimli tahlil qiladi [2;22–24-b.]. Tadqiqotchining ilmiy qarashlariga ko‘ra, turli madaniyat, ijtimoiy tuzum va davrlarga mansub bo‘lgan ushbu adiblar ijodida ayol obrazi nafaqat ijtimoiy qatlam vakili, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlovchi, insoniy poklikni o‘zida mujassam etgan markaziy figura sifatida namoyon bo‘ladi.

Xususan, J.Ostinning "Andisha va g'urur" romanidagi Elizabet Bennet hamda O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidagi Ra'no obrazlari qiyoslanganda, ularning ikkalasida ham shaxsiy erkinlik, ichki mustaqillik va o'zligini anglashga intilish xususiyatlari yetakchilik qilishi ilmiy asoslangan. S.G'aniyeva ta'kidlaydiki, ingliz adibasi ayol qahramonining ijtimoiy tabaqalanish va moddiy manfaatdorlikka asoslangan nikoh tizimiga qarshi isyonini kuchli mantiq va shaxsiy "men"ni himoya qilish orqali ifodalagan bo'lsa, o'zbek adibi milliy andisha, sabr va oilaviy muqaddas qadriyatlar doirasida ayolning ruhiy jasoratini mahorat bilan ochib beradi [2;45–51-b.].

Bundan tashqari, olima o'zbek ayolining badiiy qiyofasidagi an'anaviy andisha va zamonaviy faollik sintezini J.Ostin qahramonlaridagi aql va tuyg'u muvozanati bilan qiyoslash orqali adabiyotshunoslikka yangicha nazariy yondashuvlarni olib kiradi. Uning tadqiqotida alohida qayd etilishicha, ayol obrazi yaratishda milliy mentalitet va madaniy kodlar hal qiluvchi rol o'ynasa-da, biroq ayolga xos bo'lgan latofat, vafo, oilaga sadoqat va mustaqil fikrlash kabi xislatlar ikkala adabiyot uchun ham umuminsoniy ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, tadqiqotchi S.G'aniyeva Ostin konseptosferasidagi "Prejudice" (nohaq qarash/adovat) va Hoshimov badiiy olamidagi "milliy andisha" tushunchalarini qahramonlarning xarakterini shakllantiruvchi asosiy semantik asos sifatida talqin etadi. Olima ikkala yozuvchining ayol ruhiyatini tasvirlashdagi psixologik mahoratini qiyoslab, ular qo'llagan lirik-psixologik tasvir vositalari, detallar bilan ishlash uslubi hamda ichki monologlarning o'zaro hamohang jihatlarini ko'rsatib beradi. Uning xulosalariga ko'ra, J.Ostinning kichik detallar orqali qahramonning yashirin tuyg'ularini fosh etishi va O'.Hoshimovning inson qalbidagi nozik tebranishlarni lirik bo'yoqlarda ifodalashi ayol obrazining psixologik yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Ingliz romanchiligida ayol psixologiyasi va gender masalalarining o'rganilishi Gulnoza Qosimova ijodida ham keng o'rin egallaydi. Olima J.Ostin va Sh.Bronte romanlaridagi ayol qahramonlarning ruhiy emansipatsiyasi va mustaqillikka intilishini o'zbek ayol qiyofasi bilan qiyoslar ekan, har ikkala madaniyatda ham ayol obrazi jamiyatning axloqiy barqarorligini ta'minlovchi markaziy figura ekanligini ta'kidlaydi [4;48–54-b.]. Zamonaviy qissachilikda ayol obrazi tizimi va badiiy psixologizm masalalari esa N. To'xtamishevaning tadqiqotlarida markaziy o'rin tutadi. Olima ayol ruhiyatining ekzistensial iztiroblarini ingliz adabiyotidagi psixologik maktab an'analari bilan qiyosiy tahlil qilib, zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol obrazining yangi badiiy qirralarini ochib beradi [5;120–124-b.].

O'zbek olimlari (Z.Qodirova, Sh.Qudratova va b.) ingliz romanining janriy tabiatini quyidagi muhim yo'nalishlarda tadqiq etganlar:

1. Janriy xususiyatlar qiyosi. Ingliz realistik romanining tarkibiy qurilishi, sujet dinamikasi o'zbek an'anaviy romani bilan qiyos qilingan. Psixologik romaning vujudga kelishi va uning o'zbek adabiyotiga ta'siri tahlil qilingan.

2. Ijtimoiy-tarixiy kontekst. Viktorian davri axloqiy normalari va o'zbek jamiyati qadriyatlari o'rtasidagi farq va o'xshashliklar ko'rsatilgan. Industrial jamiyat va agrar jamiyat tafovutlari orqali roman voqealari tahlil qilingan.

3. Madaniy-gender tahlil. Jins, gender, oila, muhit masalalarida G'arb va Sharq modellari qiyosiy yoritilgan. Ayolning jamiyatdagi o'rni–Ostin, Bronte va o'zbek mualliflari asarlarida qiyosiy o'rganilgan.

Z.Qodirovaning ishlarida ingliz romanlaridagi axloqiy-estetik qarashlar, janriy rivojlanish va obrazlar tizimi tahlil qilingan bo'lsa [6;48-b.], Sh.Qudratova ingliz va o'zbek romanlarida ijtimoiy muhit, maishiy detal va qahramonlar xarakteri tipologiyasini tadqiq etgan [4;105–118-b.]. Tadqiqotlarda realistik tasvirning haqqoniyligini ta'minlovchi lingvopoetik omillarga alohida e'tibor qaratilgan. G.Masharipovaning jahon adabiyotida ayollar ijodiga bag'ishlangan ishlari esa ingliz adibalarining jahon madaniyatidagi o'rnini belgilashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi [6;34-40-b.].

Xulosa va takliflar. O'zbek tadqiqotlarining amaliy ahamiyati ikki millat va adabiyotning kelajagi, taqdiri va nufuzi uchun juda kattadir. Ular ingliz romanchiligini o'zbek o'quvchisiga yaqinlashtirish, jahon adabiyotshunosligida o'zbek ilmiy makbini shakllantirish va milliy hamda jahon adabiyoti o'rtasida metodologik muloqotni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, ingliz romanchiligi masalalari o'zbek adabiyotshunosligida nafaqat tarjimashunoslik, balki qiyosiy adabiyotshunoslik, gender tahlil va madaniy tadqiqotlar doirasida ham muhim mavzu sifatida shakllangan. O'zbek olimlarining tadqiqotlari jahon romanchiligida ayol obrazining konseptual rivojlanish qonuniyatlarini hamda milliy xarakterning badiiy matnda namoyon bo'lish xususiyatlarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mamajonov U.U. XIX asr ingliz romanida realizm tendensiyalari va ularning jahon romanchiligiga ta’siri. Filol. fan. dokt. (DSc) diss., Toshkent, 2020.

(2). G‘aniyeva S.S. Ingliz va o‘zbek romanchiligida ayol qiyofasi talqini (J.Ostin va O‘.Hoshimov asarlari misolida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref., Toshkent, 2021.

(3). Qosimova G.A. Ayol psixologizmi va jins-rol masalalari. J.Ostin va Sh.Bronte romanlari misolida. Toshkent, 2023.

(4). Qudratova Sh.B. Ingliz va o‘zbek romanlarida ijtimoiy muhit va maishiy detallar tahlili. Toshkent, 2021.

(5). To‘xtamisheva N.I. Zamonaviy o‘zbek qissachiligida ayollar obrazi tizimi va badiiy psixologizm. Samarqand, 2021.

(6). Masharipova G.K. Jahon adabiyotida ayollar ijodi va badiiy mahorat muammolari. Toshkent, 2022.

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti (PhD); qodirovamarifat@gmail.com);

Mardiyeva Dilnoza (4-bosqich talabasi; mardiyevadilnoza@gmail.com)

AHMAD A’ZAM HIKOYALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ahmad A’zamning ijodi yo‘li bilan tanishish imkoniga ega bo‘lasiz. Ahmad A’zam hikoyalarining jozibasi va qirg‘iz xalqining yozuvchisi Chingiz Aytmatovning ayrim hikoyalarida Ahmad A’zam ijodida uchraydigan shakl va uslublarni yoritilishini kuzatishimiz mumkin. Shuni ham ta’kidlashimiz kerakki, Ahmad A’zam ijodini mukammal o‘rgangan va o‘rganyotgan olimlarning ilmiy ishlari va fikrlari bilan tanishamiz.*

Kalit so‘zlar*: hikoyachilik, uslub, oiladagi munosabat, ichki iztirob, inson qadri.*

Кадирова Маърифат Абдуллаевна (Самаркандский государственный университет, Институт языков и культур народов Центральной Азии, ассистент кафедры литературы и теории литературы (PhD); kadrovamarifat@gmail.com),

Мардиева Дилноза Шароф (студентка 4 курса; mardievadilnoza@gmail.com)

УНИКАЛЬНОСТЬ ИСТОРИЙ АХМАДА АЗАМА

Аннотация. *В статье у вас будет возможность познакомиться с творчеством Ахмада Азама. Очарование рассказов Ахмада Азама и освещенность форм и стилей, встречающихся в творчестве Ахмада Азама, мы можем наблюдать в некоторых рассказах Чингиза Айтматова, писателя кыргызского народа. Следует также отметить, что мы познакомимся с научными трудами и мыслями ученых, изучавших и изучающих труды Ахмада Азама.*

Ключевые слова*: повествование, стиль, семейные отношения, внутренние страдания, человеческие ценности.*

Kadirova Ma’rifat Abdullayevna (Assistant teacher (PhD), Department of "Literature of the Independence Period and Literary Theory", Institute of Languages and Cultures of the Peoples of Central Asia, Samarkand State University named after Sharof Rashidov; kadirovamarifat@gmail.com),

Mardiyeva Dilnoza Sharof (4th grade student; mardiyevadilnoza@gmail.com)

THE UNIQUENESS OF AHMAD A’ZAM’S STORIES

Annotation. *In this article, you will have the opportunity to get acquainted with the work of Ahmad Azam. We can observe the charm of Ahmad Azam's stories and the illumination of the forms and styles found in Ahmad Azam’s work in some of the stories of Chingiz Aitmatov, a writer of the Kyrgyz people. We should also note that we will get acquainted with the scientific works and thoughts of scientists who have studied and are studying the works of Ahmad Azam.*

Key words: *storytelling, style, family relationship, inner suffering, human value.*

Kirish. Ahmad A’zam ijodidagi “Oyning gardishi” va Chingiz Aytmatovning qalamiga mansub “Qizil olma” hikoyalari orqali inson ruhiyatidagi barkamollik va insonlar hayotidagi nozik his tuyg‘ular ulug‘lanadi.

Yozuvchi uchun eng murakkab masala; biror maqola yoki voqeani bayon qilish uchun yoziladigan asardir. Adabiyotimizda har qanday asar 3 turdan birida yoziladi. Bular: 1) lirik; 2) epik; 3) dramtik.

Ayni paytdagi muhokama epik turga mansub bo‘lib, hikoyachilik yo‘nalishi hisoblanadi. “Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asardir”.[1] Ahmad A’zam hayot yo‘liga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning har bir yozgan manbasida o‘zining turmush tarzi, bo‘lib o‘tgan voqealar, hayot tajribalariga asoslangan holda yozilgan. Darhaqiqat, Ahmad A’zam Samar-

[1] Normatov U. Janr imkoniyatlari. Toshkent, 1970.